

JADIDLAR G'OYALARINING JAMIYAT MA'NAViy-MA'RIFIY HAYOTIGA TA'SIRI

*Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi, Namangan davlat texnika
universiteti tadqiqotchisi, (PhD)*

THE INFLUENCE OF JADID IDEAS ON THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL LIFE OF SOCIETY

*Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi, researcher Namangan State
Technical University, (PhD)*



<https://orcid.org/0000-0002-0147-8538>

e-mail:

n.scienceofworld@gmail.com

ВЛИЯНИЕ ИДЕЙ ДЖАДИДОВ НА ДУХОВНО- ПРОСВЕТИТЕЛЬСКУЮ ЖИЗНЬ ОБЩЕСТВА

*Фарходжонова Нодира Фарходжон кызы, исследователь
Наманганского государственного технического университета
(PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlarning ma'rifatparvarlik, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy islohotlar va siyosiy ozodlik kabi g'oyalarining jamiyat ma'naviy-ma'rifiy hayotiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, jamiyatdagi ma'rifat darajasining oshishi, milliy o'zlikning shakllanishi, ijtimoiy faollikning oshishi va mustaqillik harakatining kuchayishiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy o'zlik, ijtimoiy islohotlar, adolat, ma'naviyat, ma'rifat.

Abstract: This article analyzes the influence of the ideas of the Jadids, such as enlightenment, national identity, social reforms, and political freedom, on the spiritual and educational life of society. It also analyzes the impact of the increase in the level of education in society, the formation of national identity, the increase in social activity, and the strengthening of the independence movement.

Key words: Jadidism, enlightenment, national identity, social reforms, justice, spirituality, education.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние идей джадидов, таких как просветительство, национальное самосознание, социальные реформы и политическая свобода, на духовно-просветительскую жизнь общества. Также анализируется влияние повышения уровня образованности в обществе, формирования национальной идентичности, повышения социальной активности и усиления движения за независимость.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, национальное самосознание, социальные реформы, справедливость, духовность, просвещение.

KIRISH. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi ostida edi. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy inqirozga yuz tutgan sharoitda jadidchilik harakati paydo bo'ldi. Jadidlar jamiyatni isloh qilish, ma'rifatni yoyish, milliy o'zlikni

anglash va mustaqillikka erishishni maqsad qilgan fidoyi ziyolilar guruhidan tashkil topgan edi edi. Jadidlar g'oyalari o'sha davr jamiyatining ma'naviy-ma'rifiy hayotida o'chmas iz qoldirgan. Jadidlar merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va ushbu g'oyalar mustaqil

O'zbekistonni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega desak mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA. Yangi davr o'zbek madaniyatining asoschisi hamda jadidlar ijtimoiy-siyosiy harakatining eng yirik namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy edi. "Yosh Mahmudxo'ja dunyoqarashining shakllanishida Rusiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprinskiyning xizmati katta bo'lgan. Behbudiy o'z xotiralarida ustozi bilan uchrashuvlarini ixlos va muhabbat bilan tilga oladi"[1,356-357b].

Behbudiy tarix, adabiyot, siyosatshunoslik fanlari bilan jiddiy shug'ullangan, keyinchalik muqaddas Haj ziyoratini amalga oshirish maqsadida arab tilini ham o'rganib, Islom tarixi va nazariyasi to'g'risidagi bilimlarni mukammal egallaydi, muftiy darajasiga erishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, jadidlar zamonaviy fanlarni o'rganishni targ'ib qilar ekan, diniy bilimlarni o'rganishni ham rad etmagan. "U bir qator Sharq va G'arb tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi bo'lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ'ibotchisi ham edi"[2]. U bir necha mamlakatlarda sayohat qilar ekan u yerdagi ta'lim jarayonlari bilan tanishadi, xorij tajribasini o'rganadi hamda Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi[3]. U shunchaki maktab ochmay, balki uning har tomonlama rivojlanishi uchun ham hissa qo'shadi. Xususan yangi maktablar uchun o'z hisobidan darslik va o'quv qo'llanmalar chop ettiradi. "Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904), "Risolai jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", 1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906), "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar xati", 1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi kitoblar chop ettiradi[4]. Behbudiy ushbu darslik va qo'llanmalarida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi muhim masalalarni o'rta qo'ygan, o'qish va o'qitishni takomillashtirishning zamonaviy uslublarini tahlil etib, diniy va dunyoviy bilimlarni o'zlashtirishning ahamiyati muhim ekanligini bildirgan. Uning fikricha: "Olimi zamoniylar bo'lmoq uchun bolalarni,

avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyati diniya va o'z millatimiz tilini bildirg'ondan so'ngra hukumatimizning nizomli maktablarina bermoq kerakdur, ya'ni gimnaziya va shahar maktablarini o'qub tamom qilg'onlaridan so'ng Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qutmoq lozimdir. Rusiya vatanina va davlatina bilfe'l sherik bo'lmoq kerakdur va davlat mansablariga kirmoq lozim... Hattoki shul tariqa o'qugan musulmon bolalarini Farangiston, Amerika va Istanbul dorilfununlariga tarbiya uchun yubormoq kerakdur"[5]. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir", degan fikri isboti uning o'zi ham tinib-tinchimay harakat qiladi.

Yangi usuldagi milliy maktab asoschilaridan biri, adib, shoir, murabbiy, muharrir, ma'rifatparvar, jamoat arbobi Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li jadid g'oyalarini targ'ib qilgan asosiy shaxslardan biri edi. "Munavvar" – nur olgan, nurli degan ma'noni anglatadi. "Qori" deb Qur'onni maromiga yetkazib o'qiydiganni aytganlar[1,361-b]. Xususan u o'z davrining mashhur o'qituvchisi Usmon domladan ilmi qiroat va tajvidni o'rganib, hofizi Qur'on bo'lgan. Keyinchalik, Toshkentga qaytib, imomlik va muallimlik bilan shug'ullangan.

Munavvar qori 23 yoshida (1901) Turkistonda birinchilar qatori jadid maktabini ochishga muyassar bo'ladi[6,5-b]. Bu maktablar uchun uning o'zi ham darsliklar yozadi: "Adibi avval", "Adibi soniy" kabi alifbo va xrestomatiyalar, "Tavjid al-Qur'on" ("Qur'on qiroati"), "Yer yuzi" ("Geografiya") singari qo'llanmalar tuzib, nashr etadi. U ochgan usuli jadid maktabi tez orada Turkistonda mashhur bo'ladi. Uning tashabbuskor jonkuyarlari "taraqqiyparvarlar" deb atalgan. Ushbu maktab jadidlar tomonidan tashkil etilgan maktablar uchun ilmiy-uslubiy va amaliy tajriba markazi hisoblangan.

Munavvar qori maktablar ochish bilan cheklanib qolmay, matbuot sohasida ham sezilarli ishlarni amalga oshirgan. Xususan, uning boshchiligidagi "Taraqqiy", "Xurshid" kabi gazetalar qisqa bo'lsa-da faoliyat yuritgan. Ushbu gazetalarda

uning jamiyatdagi nohaqliklar, adolatsizlik, zulmga qarshi tanqidiy maqolalari, zamonaviy ta'limni isloh qilish orqali o'lkada ma'rifatni yanda yuksaltirish omillari yoritilgan.

Shuningdek, Munavvar qori xorijiy tajriba almashish maqsadida yuzlab yoshlarni chet el mamlakatlarida tahsil olishi uchun tashabbus ko'rsatdi. Uning faoliyatidagi ko'zga ko'ringan yana bir jihati jadidning oliy ta'limiga asos solish va oliy malakali kadrlar tayyorlashga chaqiruvi bo'lgan. Xususan, Munavvar qori hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti poydevorini qo'ygan kishilardan biri edi [6,9-b].

U o'sha davrdayoq ziyolilar xalqi oldida qattiq mashaqqat borligini va haqiqiy ziyoli maqomiga erishish uchun qanday bo'lish lozimligini uqtiradi: "Ziyoli millat, Vatan nima ekanini bilur va ziyoli millat uchun jonini, molini fido etar va millatning taraqqiysi uchun doimo harakat etar. Vaqti kelganda, millat uchun o'zini halokat vartasiga tashlamoqqa muhayyo bo'lur... Millat, vatan, madaniyat, shunga o'xshash so'zlarni bilmak bilan ziyoli bo'lmaydur" [6,13-b]. Haqiqatdan ham, jadidlar Vatan ravnaqi, ma'rifati yo'lida fidoyi bo'lgan chinakam ziyolilar edi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabr kuni "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatida jadidchilik harakati namoyondalariga to'xtalib: "Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi", degan fikrni aytib o'tadi. Agarda o'sha paytda ozgina bo'lsa-da ularda sharoit bo'lganida edi, ular bir necha tahdidlarga qaramay tahlikali zamonda jamiyat ma'naviy-ma'rifiy hayotida juda katta yutuqlarga erishib, jamiyat taraqqiyotining yanada rivoj topishida muhim tamal toshini qo'ygan bo'lishar edi.

Jadidchilik harakati va uning jamiyatga ta'siri ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotchilar jadidlarning ma'rifatparvarlik, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy islohotlar va siyosiy ozodlik kabi g'oyalari, ularning maktablar, teatrlar, matbuot orqali olib borgan faoliyatlari, shuningdek,

jadidlarning hayoti va faoliyatidagi murakkabliklar va qarama-qarshiliklar tahlil qilingan.

Ushbu maqolani yozishda tarixiy-qiyosiy, tahliliy va sintetik metodlardan foydalanildi. Jadidlar g'oyalari va faoliyatini yorituvchi manbalar tahlil qilindi, ularning jamiyatga ta'siri baholandi. Shuningdek, jadidlarning g'oyalari va faoliyatidagi qarama-qarshiliklar, ta'lim sohasidagi yutuqlari, modernizatsiya va an'anaviy jamiyat bilan munosabatlari ham tahlil qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Jadidlar yangi usul maktablarini ochish orqali xalqning ma'rifat darajasini oshirishga erishdilar. Jadidlar maktablarida o'qitish uslubi an'anaviy maktablardan farq qilgan hamda ular o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanishga va o'z fikrlarini himoya qilishga o'rgatdilar. Bu esa o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Ular o'zbek tilini rivojlantirish, milliy adabiyotni yaratish, milliy urf-odatlarini saqlash va milliy g'ururni shakllantirish orqali xalqning milliy ongini uyg'otdilar.

Jadidlar jamiyatda ijtimoiy adolatni o'rnatish, ayollarning huquqlarini himoya qilish, kambag'allarga yordam berish va boshqa ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga intildilar. Bu orqali ular xalqning ijtimoiy faolligini oshirdilar. Jadidlar mustamlakachilik zulmidan qutulish va siyosiy ozodlikka erishishga intildilar. Ularning g'oyalari mustaqillik harakatining kuchayishiga sabab bo'ldi. Jadidlar o'z asarlarida mustamlakachilikning zararli oqibatlarini, milliy ozodlikning zarurligini va milliy davlat tuzishning ahamiyatini targ'ib qildilar. Bu esa xalqning mustaqillikka bo'lgan intilishini kuchaytirdi. Shu bilan birga, jadidlar faoliyatida qarama-qarshi ikki tendensiya mavjud edi. Bir tomondan, ular modernizatsiyani qo'llab-quvvatladilar, zamonaviy bilimlar va texnologiyalarni o'zlashtirishga chaqirdilar. Boshqa tomondan, ular milliy qadriyatlarini saqlashga, an'anaviy jamiyatni himoya qilishga harakat qildilar. Umuman olganda, jadidlar faoliyati jamiyat ma'rifat sohasini bir qadam oldinga chiqishida muhim turtki bo'lgan. Ular bu yo'lida o'z maqsadlarini amalga oshirishda hatto o'zlarini ham ayamadi. Buning izohini yana Prezident so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, "Bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga

bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar"[6,20-b].

XULOSA. Jadidchilik harakati tarixan qisqa muddatda bir necha yo'nalishdagi amaliy faoliyatida, xususan, maktab-maorif, matbuot va matbaachilik, xayriya ishlari, adabiyot va san'at, teatr kabilar orqali jamiyat ijtimoiy ongini ma'rifatchilikdan siyosiy ozodlik, mustaqil davlatchilik g'oyasi tomon rivojlanitira olgan. Bu kabi g'oyalar bugungi kunning zaruriy ehtiyojidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маънавият юлдузлари. – Т.: Ўзбекистон Республикаси давлат матбуот қўмитасининг

А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. 356–357-б.

2. <https://sputniknews.uz/20231015/mahmudxoja-behbudiy-biografiya-39977022.html>)
3. Qodirov B. Ona yurt fidoyilari / Mahmudxo'ja Behbudiy buyuk ma'rifatparvar. – T.: Ma'naviyat, 2024. -B. 6.
4. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2005, 291–292-б.
5. Ахрарова З.Б. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг таълим-тарбияга оид қарашларини ўрганиш илмий педагогик муаммо сифатида // Academic research in educational sciences. 2023. №NUU conference 3. – Б.18.
6. Qodirov B. Ona yurt fidoyilari / Munavvar qori Abdurashidxonov ilm-ma'rifat targ'ibotchisi. - T.: Ma'naviyat, 2024.

